
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING TOSHLOQ TUMANI XALQ QABULXONASIDA TUMAN HOKIMI A.DJURABAYEVNING NAVBATDAGI QABULI O'TKAZILDI.

Unda 30 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 10 ga yaqin murojaatlar joyning o'zida ijobiy hal etilib, 3 nafar fuqaroga bir martalik oziq-mahsulotlari berildi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi 7 nafar fuqaroga murojaati yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

Qabul so'ngida tuman hokimi kunlik va sayyor qabullar davomida qabul qilingan murojaatlarning ijobiy hal etilish darajasini ham muhokama qildi. Belgilangan muddatda ijro etmagan, murojaatlarni ijobiy hal etilishiga befarq bo'lgan mas'ullarga ogohlantirishlar berildi.

2022-06-07 18:58:03